

## SHARTNOMA №TG-4/1

“3” fevral 2022-yil.

Yuqori Chirchiq tumani

"Taraqqiyot qurilish" xususiy korxonasi (keyingi bandlarda "Gaz to'ldiruvchi"), Nomidan, jamiyat Nizomiga asosan ish yurituvchi direktor **X.Sadikov** bir tomondan, keyingi bandlarda "Iste'molchi" **Yuqori Chirchiq tumani Irrigatsiya bo'limi** Nizomiga asosan ish yurituvchi rahbari **J.B.Turopov** ikkinchi tomondan ushbu shartnomani tuzdilar.

### I. Shartnoma mazmuni

- 1.1. "Gaz to'ldiruvchi" "Iste'molchi" ning avtotransportlarini siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirishni, "Iste'molchi" esa o'z vaqtida hisob-kitob qilishni o'z zimmasiga oladilar.

Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Jami 2022 yilda	1-chorak 2022 y.	2-chorak 2022 y.	3-chorak 2022 y.	4-chorak 2022 y.
Gazoballonli a/m uchun siqilgan tabiiy gaz	m <sup>3</sup>	740	740	0	0	0

Ko'rsatib o'tilgan 2022-yil I chorak avtomobillar uchun siqilgan gaz **1 m<sup>3</sup>** narxi **2700 so'm**. Jami **740 m<sup>3</sup>** ning summasi **1 998 000 (bir million to'qqiz yuz to'qson sakkiz ming)** so'mni tashkil etadi.

- 1.3. "Iste'molchi" avtotransporti siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirilgan kun gaz to'ldirilgan sana xisoblanadi.

### II. Hisob-kitob tartibi

- 2.1. Shartnomaning umumiy qiymati **1998000 (bir million to'qqiz yuz to'qson sakkiz ming)** so'mni tashkil qiladi.
- 2.2. Siqilgan tabiiy gaz 1 m.kub bahosi QQS va Aksiz solig'i bilan **260 608 (ikki yuz oltmish ming olti yuz sakkiz)** so'm bo'lib, xom-ashyolar, moddiy boyliklar, yoqilg'i-energetika resurslari bahosi o'zgarganda va O'zbekiston Respublikasi qonunlari, qarorlari va normativ aktlariga asosan o'zgarishi mumkin.
- 2.3. "Iste'molchi" avtotransportlarini siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirish "Gaz to'ldiruvchi"ning bankdagi hisob raqamiga 50% to'lov o'tkazilgandan keyin, belgilangan shakldagi tarqatma jadval (razdatochnaya vedomost) buyicha amalga oshiriladi.
- 2.4. "Gaz to'ldiruvchi" tomonidan "Iste'molchi" avtotransporti to'ldirilgan siqilgan tabiiy gaz hajmi "Gaz to'ldiruvchi" ning o'lchov asboblari orqali aniqlanadi, "Uzneftegaz" M.X.K tomonidan 28.11.1995-yilda tasdiqlangan 51-034-94 " (Davstandartda tasdiqlangan (reg. 418 I 13.01.1995 g.)) va AGNKS da avtotransportlarni siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirishda hajmni aniqlash jadvali".

### III. Tomonlarning majburiyatlari va huquqlari

- 3.1. "Iste'molchi" GBU (gazoballonli uskuna GBO) bilan jihozlangan avtotransportlarining texnik holati va texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, sanitariya va ekologiya xavfsizligi uchun javobgar hisoblanadi.